



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA SHAXMATNI O'QITISH TAMOYILLARI

Axunjonov A.

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

Tayanch soʻzlar: shaxmat, didaktik vosita, ta'lim sifati, qobiliyat, xotira, sezgirlik, idrok, tasavvur, tanqidiy fikrlash.

Ключевые слова: шахматы, дидактическое средство, качество обучения, способности, память, чувствительность, восприятие, воображение, критическое мышление.

Key words: chess, didactic tool, quality of teaching, abilities, memory, sensitivity, perception, imagination, critical thinking.


Pedagogikada o'quvchilarning shaxsiy sifatlarini, xususan ularning kreativ qobiliyatlarini shakllantirib borishda jamiyat hamda davlat talablaridan kelib chiqib, o'qitish tamoyillariga amal qilgan holda o'quv jarayonini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muhimlikka o'quv jarayonini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri tashkil hisobiga erishiladi.

Shu o'rinda avvalo o'qitish tamoyillari hamda ushbu tamoyillarni o'quv jarayonidagi o'rni to'g'risida bir qator olimlarning fikr mulohazalarini keltiramiz.

V.I.Zagvyazinskiy va A.F.Zakirovalar tomonidan tuzilgan "Pedagogik lug'atda" "O'qitish tamoyili (lotincha principium - boshlanish, asos)-ta'lim jarayonida sub'ektning munosabatlarini, hatti-harakatlari va faoliyatini belgilaydigan vaziyatlar, ta'limotlar, majburiy qoidalar va o'qitishga qo'yilgan talablarni o'zida aks ettiradi-deya keltirilgan[1].

F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova "Buyuk pedagoglar Y.A. Komenskiy, J.J.Russo, Ch.R.Pestalossi, V.Disterverg, K.D.Ushinskiy va boshqalar o'z asarlarida ta'lim (didaktika) tamoyillarini asoslab berganligini va o'qitish tamoyili ta'limning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblaganligini"-ta'kidlaydilar[2].

Tadqiqotlarimizning matematik-statistik natijalari tasdiqladiki, bizningcha shaxmat ham o'ziga xos tamoyillar asosida nazariy va amaliy jihatlarni o'z ichiga olgan, ta'lim sifatini oshirish uchun keng imkoniyatlarni o'zida mujassam etgan ko'rgazmali didaktik vosita hisoblanadi. Bi so'z bilan aytganda, pedagogika tamoyillarining maqsad vazifalari kabi shaxmatga o'qitish tamoyillari ham strategik nuqtai nazardan ta'limni sifat va samaradorligini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Quyida pedagogika va shaxmat vositasining ta'lim sifatini ta'minlovchi tamoyillarni o'zaro bo'liqligi keltiramiz (1-rasm).



1-rasm. Pedagogika va shaxmatni o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi tamoyillari

Ta'limni sifat va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan tamoyillar

Tadqiqotlarimiz natijasi o'laroq yuqoridagi rasmda keltirilgan pedagogika va shaxmat o'rtasida o'zaro bog'liqlikdan kelib chiqib ta'kidlashimiz mumkinki, pedagogikada qo'yilgan ta'lim tamoyillari talablariga shaxmat didaktikasi ham to'liq javob bera oladi. Bu borada V.V.Knyazova "Shaxmat darslari o'quvchilarning bilish faolligini oshirish nuqtai nazardan universal imkoniyatga ega. Shaxmat o'quv mashg'ulotlari mohiyatan pedagogikaga qo'yilgan talablarga, pedagogikaning barcha qonunlariga mos keladi. Shu sababli ta'limda shaxmatning bunday didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish kerakligini" ta'kidlaydi[7].

Yuqoridagi keltirilgan fikrlargadan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ilmiy izlanishlarimizda pedagogik jarayonlarni tashkil qilishda o'quvchilarning kreativligini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tamoyillari bilan shaxmat o'rgatish asosida o'quvchilarni kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish tamoyillarini o'xshash jihatlarni aniqladik(1-jadval).



Pedagogika va shaxmat didaktikasining qiyosiy tahlili.

№	Tamoyillar	Pedagogika	Shaxmat didaktikasi
1	<p>Bir maqsadga qaratilgan ilmiylik tamoyili</p> <p>[uz.denometr.com/doks/768/index-93773-1.ntml?page=3]</p>	<p>O'quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda Jamiyat talablarini hamda iqtisodiyotning rivojlanish talablarini hisobga olish Bunda pedagogik jarayonda o'quvchilarning jamiyat talablari bilan uyg'unlashgan yangi ilmiy bilimlarni o'zlashtirib borishni nazarda tutiladi.</p>	<p>Shaxmatda maqsad shohni mot qilish. Buning uchun shaxmat taxtasidagi donalarini maqsadli harakatlantira olish orqali vaziyatlar yaratish va shu asosda kutilgan natijaga erishish nazarda tutiladi. Maktab dasturilariga kiritilgan shaxmat o'rgatish jarayonida shaxmat taxtasidagi vaziyatlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, tahlil natijasida qabul qilingan qarorlar asosida o'quvchilarni muammolarni yecha olishga qaratilgan shaxsiy sifatleri rivojlantirib boriladi. Shaxmatda har bir yurish o'ziga xos bilim va malaka talab qiladi.</p>
2	<p>Tizimlilik va izchillik tamoyili</p> <p>[uz.denometr.com/doks/768/index-93773-1.ntml?page=3]</p>	<p>Ma'lumdan noma'lumga, osondan qiyinga, oddiydan murakkabga, yaqindan uzoqqa, konkretan abstraktga, misollardan qoidalarga, yakkalikdan umumiylikka o'tish tamoyili</p>	<p>Shaxmatni o'rganishda ham ma'lum vaziyatlardan noma'lum vaziyatlarga o'tish, oddiy yurishlardan murakkab yurishlarga o'tish, shuningdek, dastlabki yurishlarda samarali vaziyatlar yaratishga qaratilgan jihatlariga e'tibor qaratish, keyinchalik shu asosda uzoqroq bo'lgan maqsadlarni belgilash, konkret vaziyatlardan abstrakt vaziyatlarga o'tish.</p>
3	<p>Onglilik va faollik tamoyili</p> <p>[uz.denometr.com/doks/768/index-93773-1.ntml?page=3]</p>	<p>Faol fikrlash, taqqoslash, qiyoslash, asosida yosh avlodni bilim, ko'nikma va malakalarini jamiyat talablari asosida shakllantirish</p>	<p>Shaxmat taxtasida muammoli vaziyatlar yaratish mashqlari orqali o'quvchilarni faol fikrlashi, vaziyatlarni ongli ravishda tahlil qila olishi, birinchi va keyingi vaziyatlarni qiyoslash asnosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash jarayonini rivojlantirib boriladi.</p>



4	Bilimlarni puxta va mustaxkam o'zlashtirish tamoyili [uz.denometr.com/doks/768/index-93773-1.ntml?page=3]	O'quvchilarni sezgi organlarini faollashtirish, ya'ni ko'rgazmali vositalardan samarali foydalanish, ularni mustaqil ishlashga, mustaqil tafakkur qilishga, mantiqiy xulosalar chiqarishga o'rgatish.	Shaxmatda o'zlashtiriladigan bilimlar aniq vaziyatlar ustiga quriladi. Shaxmat o'yinida o'quvchilar faollik ko'rsatishi, mantiqiy fikrlashi orqali bu bilimlarni o'zini qilib oladi. Bunday bilimlar xotirada uzoq saqlanadi.
5	O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari hisobga olish tamoyili [uz.denometr.com/doks/768/index-93773-1.ntml?page=3]	O'quv materiallari bolalarning yoshi va ma'lumotiga qanchalik loyiq, mos bo'lsa, bu o'quv materiallari o'quvchiga shunchalik tushunarli bo'ladi va uzoq vaqt xotirasida saqlanadi.	Shaxmat mashg'ulotlari mazmuni, murakkablik darajasi 2-,3-,4-sinflar kesimida o'quvchilarni yosh va psixologik, fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi.
6	Ko'rsatmalilik tamoyili [uz.denometr.com/doks/768/index-93773-1.ntml?page=3]	Ta'limning ko'rsatmalilik tamoyili o'quv materiallarini konkret obrazlar orqali bevosita o'quvchilarning idrok qilishlarini ta'minlashga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi	Shaxmatda o'quvchilar aniq vaziyatlar ustida o'ylaydi, fikrlaydi va ishlaydi. Bu esa ularni tafakkurini, idrokini rivojlantiradi.
7	Nazariyani amaliyot bilan bog'lab olib borish tamoyili [uz.denometr.com/doks/768/index-93773-1.ntml?page=3]	Fan asoslarini egallashning yetakchi qoidasi – ta'limning amaliyot bilan, jamiyat – hayot, ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'lab olib borishni talab etadi.	Shaxmat mashg'uloti nazariya bilan amaliyotni birga olib borish imkoniyatini o'zida mujassam etgan didaktik vosita hisoblanadi.
8	Tarixiylik tamoyili [uz.denometr.com/doks/768/index-93773-1.ntml?page=3]	O'quvchilarga bilim, malaka hamda ko'nikmalar berishda tarixiy voqealarni ilmiy, tizimli va izchillikka qat'iy rioya qilgan holda tushuntirish talab etadi	Shaxmat mashg'ulotida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishda avval bo'lib o'tgan etyudlardagi vaziyatlar o'rganiladi.
9	Tarbiya bilan ta'limning birligi tamoyili [uz.denometr.com/doks/768/index-93773-1.ntml?page=3]	O'zlashtirilgan ilmiy bilimlar asosida o'quvchilarda ma'naviy sifatlar, xulqiy fazilatlar hamda dunyoqarash tarkib toptirishni o'z ichiga oladi	Shaxmat mashg'ulotlarida o'quvchilarning irodasi mustahkamlanadi, o'zgalarni hurmat qilish, kurashuvchanlik madaniyati va boshqa shaxsiy sifatleri rivojlanib boradi.



Darhaqiqat mazkur dissertatsiyani tayyorlash jarayonidagi tadqiqotlarimizning dastlabki xulosalari shaxmat ta'lim tamoyillarini o'zida mujassam etgan didaktik vosita ekanligini tasdiqladi.

Shunday qilib ta'lim tomyiillari kabi shaxmat o'yinida ham shaxmat doskasi bilan tanishuv, debyut, mittelshpil, endshpil. Oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yakkadan umumiylikka tamoyillari asosida takomillashtirib boriladi. Xuddi shunday asosda shaxmat topshiriqlari va etyudlarini bajarishga e'tibor qaratiladi. Shaxmatning o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tamoyillari tadrijiy ravishda o'quvchilarning streotip(shablon)dan chiqib fikrlashini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. V.I.Zagvyazinskiy, A.F.Zakirova "Педагогический словарь" Москва-2008 г. Издательский центр "Академия". 343 стр.
2. I.Xaydarov, N.I.Xalilova "Umumiy psixologiya" qo'llanma. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Toshkent-2007.
3. V.V.Knyazeva "Активизация познавательной деятельности учащихся общеобразовательной школы (на примере преподавания шахмат)". Дис.канд.пед.наук. 13.00.01, Ташкент -1992, 2008 стр.

РЕЗЮМЕ

Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida shaxmatni o'qitish tamoyillari haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются принципы преподавания шахмат в общеобразовательных средних учебных заведениях.

SUMMARY

The article discusses the principles of teaching chess in secondary schools.